

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10801750>

O'QITUVCHINING O'Z-O'ZINI TARBIYALASH VA O'Z USTIDA ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Bahtiyorova Asila

Nizomiy nomidagi TDPU

Boshlang'ich ta'lif fakulteti 2-kurs talabasi

baxtiyorovaasila18@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash haqidagi bilimlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, o'z ustida ishlash, kasbiy pedagogik refleksiya, pedagogik tashxislash funksiyalari, iroda va xarakter, yoshlarda mustaqil ravishda bilim olish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются знания о самообразовании и самосовершенствовании.

ABSTRACT

This article covers knowledge about self-education and self-improvement.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lif va tarbiyadir.

SH.Mirziyoyev

O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoniga muvofiq, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida farmon tasdiqlandi. Farmonni 6-bandida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha turli topshiriqlar belgilandi.

Bu borada yurtimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Har bir oila, har bir bolaning hayoti mакtab bilan bog‘langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta’kidlandi.

Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o‘qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo‘lgan bu mo‘tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz kerak, – dedi Prezidentimiz o‘z nutqlarida.

Tarbiya keng ijtimoiy ma’noda-ijtimoiy madaniy tajribalarni, me’yor va qadriyatlarni avloddan avlodga o‘tishini ifodalaydi. Tarbiyaning ushbu ma’nosи sotsiologiya va boshqa xulq-atvor to‘g‘risidagi fanlardagi shaxsni ijtimoiylashuviga yaqiroq. Ijtimoiylashuv deganda, insonni jamiyatdagi xulq-atvor normalarini o‘zlashtirishni, ijtimoiy hayotda insonni barcha ta’sir etuvchi omillar natijasida ijtimoiy rivojlanish jarayonini tushunamiz. Haqiqiqatdan ham insonning tarbiyasi uning xulq-atvorini yaqqol namunasi desak adashmaymiz. Ajdodlarimiz ham tarbiya haqida o‘z fikrlarini biz yosh avlodga qoldirib ketgan. Shular jumlasidan Abdulla Avloniyning fikrlarini misol qilib olishimiz mumkin “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Bu fikrlar barcha o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun bir poydevor deyishimiz mumkin. Darhaqiqat, tarbiya insonni yo yaxshilikka, yo yomonlikka yetaklaydi. Bu borada xalqimizda bir maqol ham bor: ”Qush inida ko‘rganini qiladi”. Bu degani har bir bola eng avvalo oila davrasida ilk tarbiyani ola boshlaydi. Oiladagi muhit bola tarbiyasida katta o‘rin egallaydi. Lekin shunday holatlar ham bo‘ladiki, oilada nosog‘lom muhit bo‘lganda ham shunday

insonlar borki har qanday holatdan xulosa chiqarib o‘zini-o‘zi tarbiyalaydi. Har qanday yomonlikdan bir yaxshilik izlaydi. Bobolarimiz:” Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash kerak “deb takidlaydilar. Lekin mening fikrimcha: bolani hali u ona qornida mavjud bo‘lishidan oldin tarbiyalashni boshlash kerak deb o‘ylayman. Bunga sabab bo‘lajak ota-onas oldin o‘zini tarbiyalamog‘i lozim, kelajakda bolalariga nima to‘g‘ri? nima noto‘g‘riliqini? anglatish uchun avvalambor o‘zlari yetarlicha bilimga ega bo‘lishi kerak deb o‘ylayman.

O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishslash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Refleksiya (lotincha-reflexsio-orqaga qaytish) ma’nosini anglatadi. “Insonning O‘z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir. Inson ma’naviy dunyosining O‘ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir”-deb ta’rif berilgan falsafiy ensiklopediyada.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o‘zi fikr yurutish jarayoni, o‘z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e’tiborini jalb qilishni anglatadi. Shunday insonlar borki, ular o‘z onggi bilan ish qilmaydi, ya’ni, boshqalarni fikrini o‘zining fikrlaridan ustun deb o‘ylaydilar. Bu tushunchani ham xato deb hisoblamasligimiz kerak. Chunki shunday do‘sstar borki, do‘sstining xatolarini to‘g‘rlashga, undagi kamchiliklarni yo‘qotishga yordam beradi. Hayotda o‘z o‘rnini topish muhim masaladir. Har qanday joyda ham, har qanday vaziyatda ham inson o‘z fikrini bildirishi kerak.

O‘qituvchi o‘z-o‘zini anglashi,o‘zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi, o‘z tarbiyalanuvchilarning hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishga zarur shart sharoitlar yaratish uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etadi. Bu fanda refleksiya deb ataladi.

Pedagogik refleksiya o‘qituvchiga o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o‘z bilimi va imkoniyatlaridan izlab topishda ko‘maklashadi va rivojlanishini ta’minlaydi. Har bir o‘qituvchi kun sayin , balki, soat sayin o‘z ustida

ishlashi va yangi bilimlarni o‘rganishi kerak deb hisoblayman. Ayniqsa boshlangich sinf o‘qituvchilari kelajak poydevorlarini tarbiyalashda har bir holatga katta e’tibor bilan yondashishi lozimdir. Har bir bolaga yetarlicha ma’lumot, bilim va ko‘nikma berishi darkordir.

Kasbiy pedagogik refleksiyada o‘z-o‘zini anglash jarayonini o‘qituvchining o‘z faoliyati va unda o‘ziga nisbatan noaniq pozitsiyada turib, o‘ziga tashqaridan qarash, o‘zini kuzatish malakasini ko‘zda tutadi.

Kasbiy pedagogik refleksiyada o‘z-o‘zini belgilash jarayonida boshlang‘ich daraja kasbiy ehtiyojlarini hisobga olib, belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakillantiriladi. Haqiqiy ”men” va ”ideal men” nisbatlanadi. Ya’ni bunda o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayoni o‘qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishining ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi. Mening fikrimcha har bir o‘qituvchi o‘z ustida mukammal ishlay olsa, bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlay olsa o‘shandagina mukammal inson darajasida bo‘lishi mumkin. Har bir inson o‘z oldiga kerakli va mukammal maqsad qo‘yish kerak. Keyin esa unga erishish uchun tinimsiz mehnat va mashaqqat chekish kerak. Chunki har bir muvaffaqiyatning ortida kuchli mashaqqat turadi.

Har qanday o‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga juda kuchli intilishi bo‘lsa ham o‘zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakalarisiz belgilay olmaydi, bu pedagogik faoliyatdagи muvaffaqiyatlarga erishish, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashga tayyorgarligi, uning o‘z-o‘zini tahlil qila olishi, o‘z-o‘zini taqqoslash qobiliyatining qanchalik shakillanganligi bilan bog‘liq. Haqiqatdan ham inson boshqaga tarbiya berishdan avval o‘zini va ichki dunyosini tarbiya qilish lozim deb hisoblayman. Chunki insonning ichki dunyosi qanchalik go‘zal bo‘lsa u o‘zgalarga ham doimo mehr va muhabbat ulashadi. Unday insondan hech qachon yomonlik va g‘arazlik chiqmaydi.

Pedagogik tashxislash funksiyalari:

Tahliliy funksiyasi-o‘quv tarbiya jarayonidagi yutuq va kamchiliklarning kelib chiqish sabab va oqibatlarini, ularni o‘zaro bog‘lanishlarini aniqlash va chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bundan shuni aytishimiz mumkinki har bir jarayondagi yutuq va kamchiliklarimizni eng avvalo to‘g‘ri tahlil qila olishni o‘rganishimiz kerak. Chunki uning oqibatlariga ham o‘zimiz javobgarmiz.

Diagnostik funksiya-o‘quvchini ta’lim olganligi, tarbiyalanganligi, rivojlanganligini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Bunda asosan har bir bolani qay darajada o‘zgarganligini o‘rganishimiz mumkin. Lekin buning uchun uni to‘g‘ri diagnostika qila olishimiz kerak.

Baholash funksiyasi-ma’muriyat tomonidan olib borilib alohida o‘qituvchi yoki o‘quvchi faoliyatida erishilgan yutuq va kamchiliklarni sifat ko‘rsatkichlarini miqdor jihatidan baholaydi.

Korreksion funksiyasi-o‘quv-tarbiyaviy jarayonni o‘qituvchining pedagogik faoliyati yuzasidan korreksiyalashni ta’minlaydi.

Orientasion funksiyasi-o‘quv-tarbiyaviy jarayonni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalashi uchun, avvalo, o‘zini atroflicha chuqr o‘rganishi, o‘z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko‘ra olishi kerak.o‘z-o‘zni o‘rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqa yutuqlarni o‘rganmay, o‘zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o‘zini shaxs sifatida o‘rganish mumkin emas. o‘zini anglash,o‘zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Pedagogik vazifa-faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko‘rsatib berishdan, ularning muhim axloqiy prinsiplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o‘z irodasini o‘zi tarbiyalashga intiluvchi o‘quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko‘rsatishdan iboratdir. Agar pedagogik adabiyotda ta’rif-tasvirlanayotgan yoshlar qo‘llayotgan sodda va yasama usullariga e’tibor beradigan bo‘lsak, yana ham muhimdir. Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu usullari

samarasizligi eng avvalo shundaki, o'spirin bir lahzalik "irodaviy xatti-harakatini" amalga oshirib, o'zining irodasi kuchli ekanligi to'g'risidagi fikrni tasdiqlay oladi. Har qanday pedagogni irodasi mustahkam bo'lish kerak deb o'ylayman. Chunki hayotda turli xil bolalar uchraydi. Ularning psixikasi ham turlichadir. O'qituvchi yarim psixolog bo'lish kerak deyishadi. Ammo mening fikrimcha boshlang'ich sinf o'qituvchisi to'liq psixolog bo'lish kerak deb o'ylayman. Chunki har bir bolani psixikasini o'rghanib, unga to'g'ri muomala qilish, uning uchun yomon ta'sir qiladigan so'zлarni ishlatmasligi kerak. Har bir o'sib kelayotgan yosh avlodning irodasini qanchalik mustahkam bo'lishi uning boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ham bog'liq deb hisoblayman.

Aslida esa irodani kundalik hayotda, o'qishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etishni tashkil etadi. Buning ustiga mehnat, o'qish, sport faoliyatining har bir daqiqasi irodani chiniqtirish uchun o'quv, mehnat va boshqa faoliyatini amalga oshirishga xalaqit beradigan bir daqiqalik istaklarni bartaraf etish uchun sharoit yaratadi. Sport bilan shug'llanish ham irodani mustahkam qilishga ruhan hamda jismonan chiniqishga yordam beradi.

Eng avvalo, o'qituvchi o'zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rGANishi kerak. Pedagogik faoliyatga muhabbati yuksak o'qituvchi ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo'l qo'ymaydi. o'z kasbini sevgan o'qituvchi doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o'z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi.

Ma'lumki, insoniyatni kamolotga chorlovchi imkoniyatlari shunchalik ko'PKI, ularga erishish maqsadlari intilishida sabr-toqat bilan o'z ustida ishlash orqali erishishi mumkinligini tarixiy faktlarda ko'ramiz. Buyuk nemis pedagogi D.Disterverg har bir o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashni o'z oldiga sharafli vazifa qilib belgilashi lozim. Haqiqatan ham nafaqat pedagog emas, balki yer yuzidagi jamiki insoniyat o'z-o'zini tarbiyalashni sharafli vazifa sifatida qarashi kerak deb hisoblayman. Chunki hammaning dunyo qarashi turlicha bo'ladi. Lekin oldiga shunday maqsad qo'yish

kerakki, u maqsadga erishish uchun eng avvalo o‘zini ruhini tarbiyalash lozim deb hisoblayman.

Rus pedagogi A.B.Lunacharskiy; “Pedagog O‘zida insoniyat idealini shakillantirishi lozim“-degan edi.

Aynan insoniyatning go‘zal fazilatlarini o‘zida shakillantirish har bir pedagogning kasbiy tayyorgarligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorda pedagogning kasbiy mahorati o‘z ustida ishlash tufayli kundan kunga o‘sib borishi mumkin.

A.C.Makarenko kasbiy takomillashtirish masalasida shunday degan edi ”Men pedagogik talantga ega edim. Pedagogikaga kutilmaganda kirib keldim va o‘rgandim. Men o‘z ishimning ustasi darajasida ko‘tarildim, o‘z ishimning ustasi darajasiga har bir intiluvchi pedagog erishishi mumkin. “Bunda unda yordam berishi, o‘z ustida ishlash asosiy rol o‘ynaydi. Darhaqiqat, insonga eng katta yordamchi bu uning o‘zidir. Har bir inson o‘z ustida ishlashi bilangina qandaydir cho‘qqiga chiqishi mumkin. Atrofdagi insonlarga bog‘lanib qolib, ular qaysidir ma’noda o‘zlari harakat qilmasdan, ularning yordamni kutib yashagan inson hayotda o‘z maqsadiga erisha olmaydi.

Otto Yulyevich Shimit umrining har bir daqiqasidan sermahsul foydalanadi. Yerning va sayyoralarining paydo bo‘lishi nazariyasining asosi. U o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘illanib, inson imkoniyatlari keng ekanligi isbotladi. A. A .Lyubishev, shunday degan, inson uchun yomon bo‘sh, ortiqcha vaqt bo‘lishi mumkin emas. U o‘z umrining daqiqalarini ongli holda hisoblashdan qo‘rqmas edi. Men o‘ylaymanki hayotimiz oltin bir soat. Undagi har bir daqiqa bizning o‘tayotgan umrimizdir. O‘tayotgan har bir daqiqani to‘g‘ri taqsimlay olish kerak. Har kun yangicha rejalar, yangicha maqsadlar tuzish kerak. Hozirgi kunda ayrim ota-onalar farzandining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlay olishmoqda. Darsdan bo‘sh vaqtlarida turli xil fan to‘garaklariga yo‘naltirmoqda. Kelajakda o‘zlari hohlagan kasb egasi bo‘lish uchun birgalikda harakat qilishmoqda.

Agar shaxs izlansa, o‘z qobiliyatlari ustida ishlasa, o‘zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro‘si, mavqeyi ham shu darajada yuksaladi va doimiy el

nazarida bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zida kuzatuvchanlikni, g‘amxo‘rlikni tarbiyalashi lozim va uni o‘quvchilari orasida qo‘llay olishi darkordir.

Hozirgi rivojlangan zamonda prezidentimiz bizga shunchalik katta e’tibor qaratmoqdaki kundan kunga bilim olishimiz uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuni ham aytishimiz joizki bu yil ham yoshlarga bag‘ishlandi. 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvatlash yili” deb nomlangan. Bundan kelib chiqadiki har bir inson uchun yangicha g‘oyalar va maqsadlar yo‘li yanada keng ochildi. Endi navbat bizniki! o‘z irodamizni mustahkamlab, kelajkda yangi g‘oyalar bilan intilib o‘zimizni yangi cho‘qqilar ustida ko‘rishni boshlashimiz kerak. Ey aziz tengdoshim, vatandoshim, yurtdoshim sizga va bizga berilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanaylik. Vatanimiz bayrog‘ini ko‘klarga ko‘taraylik. Zero O‘zbekiston kelajagi yoshlar qo‘lidadir!

Xulosa: Ushbu maqolamdan shuni xulosa qilib aytishim mumkin. Dunyoda qobiliyatsiz insonni o‘zi yo‘q. Hamma qobiliyatlari va iqtidorlidir. Lekin uni uyg‘ota bilish uchun eng avvalo o‘z-o‘zini boshqara olishni hamda tarbiyalashni bilishi kerak. Inson ichida ulkan g‘oyalar bor. Ularni amalga oshirish uchun mehnat va sabr-toqat kerak. Ustozlarimizga munosib shogird bo‘lishimiz kerak. Bizning vatanimizdan qanchadan qancha shoirlar, adiblar hamda buyuk insonlar chiqqan. Biz ham ularning izidan borib yuksaklarga erishmog‘imiz shart. Bobolarimiz ruhlarini shod etib, yuksak marralarga kundan kunga chiqib borishimiz kerak, shart va lozimdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. A. Salayeva. *Umumiy pedagogika/pedagogika ta’lim sohasi bakalavirat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik.* ”Nodirabegim” nashiryoti Toshkent-2021.
2. Hashintov. K. Nishonova. S. Pedagogika tarixi.-T. : O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashiryoti, 2005.
3. Yuzlikayeva. E, Axmedova. M.Qurbanova. G, Sh. Tashmetova. *Umumiy pedagogika.Darslik.* -T: TDPU, 2012.